

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ISMATOV JAXONGIR ATAVULLAYEVICH**

**O'ZBEKISTON MONOSHAHARLARI IJTIMOIY-IQTISODIY  
RIVOJLANISHINING OMILLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
geographical sciences**

**Ismatov Jaxongir Atavullayevich**

O‘zbekiston monoshaharlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omillari, muammolari va istiqbollari .....	3
--	---

**Исматов Джаконгир Атавуллаевич**

Факторы, проблемы и перспективы социально-экономического развития моногородов Узбекистана .....	21
--	----

**Ismatov Jakhongir Atavullayevich**

Factors, problems and prospects for the socio-economic development of single- industry towns in Uzbekistan .....	39
---	----

**E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ
-----------------------------

List of published works .....	44
-------------------------------	----

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ISMATOV JAXONGIR ATAVULLAYEVICH**

**O'ZBEKISTON MONOSHAHARLARI IJTIMOIY-IQTISODIY  
RIVOJLANISHINING OMILLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Gr270 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz-rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lif portalı ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rajabov Furqat Turakulovich**

geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich**

geografiya fanlari doktori, dotsent

**Yembergenov Naurizbay Janabayevich**

geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "08" iyun soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, faks: (99861) 223-60-78; e-mail: [ik.geografiya@gmail.com](mailto:ik.geografiya@gmail.com)).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "27" may kuni tarqatildi.

(2024-yil "27" maydagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**I.R.Turdimambetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

**G.A.Xodjaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, g.f.n., dotsent

**P.R.Reymov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda tor ixtisoslashgan shaharlar (monoshaharlar) funksiyalarining qamrovini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muqobil yo'llarini ishlab chiqish, ijtimoiy-demografik va ekologik vaziyatini yaxshilash dolzarb muammolar qatoridan joy olmoqda. Shu bois, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 11-maqсади “Shaharlar va aholi punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta'minlash” bilan bog'liq vazifalarning yechimiga yo'naltirilgan<sup>1</sup>. Tegishli maqsadga erishish esa monoshaharlar xo'jaligining tarmoqlar tarkibini diversifikatsiyalash, aholi bandligini oshirish, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan kompleks choralarни ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilishni taqozo etadi.

Jahonda tor ixtisoslashgan shahar manzilgohlarining shakllanish va rivojlanish omillarini aniqlashga, tegishli toifadagi shaharlarni tasniflashga, ularning ishlab chiqarish va demografik salohiyatidan unumli foydalanish muammolarini o'rganishga va ushbu muammolarning yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda monoshaharlarni shaharlarning alohida toifasi sifatida ajratishning mezon va tamoyillarini asoslash, tor ixtisoslashgan shahar manzilgohlarini genetik va funksional jihatdan tasniflash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik vaziyatini baholash, prognozlash va muammoli jihatlarni aniqlash, tegishli toifadagi shaharlarning xo'jalik va ijtimoiy-madaniy funksiyalarini diversifikatsiyalash yo'llarini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda shahar manzilgohlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilib, muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston – 2030” Strategiyasining 60-bandida “Urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish, “Yangi O'zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo'shimcha 200 mingta oilaga mo'ljallangan uy-joylar barpo etish, aholi zich bo'lgan hududlarda “bo'yiga o'stirish” tamoyili asosida ko'p qavatli uy-joylar barpo etish”<sup>2</sup> singari dolzarb vazifalar belgilangan. Bu borada, jumladan, mamlakatimizdagi monoshaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari, muammo va istiqbollarini kompleks o'rganishga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5623-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni tasdiqlash to'g'risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2022-yil 28-dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-

<sup>1</sup> <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” Strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni

yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459-son, 2023-yil 19-apreldagi “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasida shaharlarni kompleks rivojlantirish dasturi” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-124-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 29-apreldagi “2022–2026-yillarda Toshkent viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 228-son Qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Monoshaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va geoekologik vaziyatining o‘ziga xos xususiyatlari jahonda turli fan sohalari vakillari, jumladan, geograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, muhandislar tomonidan o‘rganilgan. Uzoq xorij mamlakatlaridagi olimlardan monoshaharlar muammolarini J.Allen, L.Karlson, D.Karson, H.Klemenson, O.Dinius, G.Duranson, H.Grin, B.Gumprecht, I.Harold, J.M.Hartvik, B.Levi, D.Littlvud, R.Lukas, D.V.Magill, A.Mavayni, P.Merlen, M.Olshauzen, J.Porteus va boshqa mutaxassislar o‘rgangan.

MDH olimlaridan monoshaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va geoekologik muammolarini Ye.G.Animitsa, Ye.A.Antipova, A.A.Bartosh, V.S.Bochko, V.M.Bulayev, A.S.Gorodetskaya, M.A.Gureyeva, G.B.Dugarova, N.A.Dyatlova, Ye.D.Yeremina, N.Yu.Zamyatina, D.Yu.Zemlyanskiy, O.P.Ivanova, N.S.Ivashina, I.N.Ilina, N.N.Kiseleva, O.A.Kolesnikova, T.F.Kreydenko, S.N.Krekotnev, G.Yu.Kuznetsova, O.V.Kuznetsova, G.M.Lappo, A.I.Litkin, V.Ya.Lyubovniy, A.N.Makarov, I.V.Manayeva, A.N.Maslova, N.Yu.Mikryukov, I.O.Moskalenko, N.P.Mitskix, O.A.Neganova, A.N.Pilyasov, A.N.Pitkin, V.M.Pushkaryov, S.G.Pyankova, S.N.Rastvorseva, I.A.Rodionova, A.N.Ryaxovseva, N.M.Sisoyeva, M.N.Teteryatnikova, V.A.Trifonov, I.D.Turgel, A.V.Turkov, Ye.E.Shvakov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida o‘rgangan.

Mamlakatimizda monoshaharlarning rivojlanishiga aloqador masalalarni o‘zining geourbanistikaga bag‘ishlangan tadqiqotlarida N.V.Smirnov, T.I.Raimov, O.B.Atta-Mirzayev, A.S.Soliyev, E.A.Axmedov, A.A.Qayumov, N.X.Mamatqulov, S.Haydarov, Z.T.Abdalova, G.A.Xodjayeva, Z.N.Tojiyeva, S.K.Tashtayeva, M.M.Egamberdiyeva, A.M.Mavlonov, P.R.Qurbanov kabi iqtisodiy geograflar muayyan darajada ko‘rib chiqqan. Bu borada, ayniqsa, Z.X.Rayimjonovning O‘rta Osiyo resurs shaharlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlari alohida e’tiborga loyiq.

Biroq, O‘zbekistonda shahar manzilgohlarining alohida toifasi hisoblanadigan monoshaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiy geografik omillari, muammo va istiqbollari, muqobil yo‘nalishlarini

kompleks o‘rganishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlar hanuzgacha bajarilmagan. Ushbu holat mazkur dissertatsiya ishining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda yangilik jihatlarini belgilab beradi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Geografiya fanida tizimli yondashuv: nazariya, eksperiment, amaliyot va ta’lim” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston monoshaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini tahlil qilish asosida ularni muqobil rivojlantirish yo‘llarini belgilash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

ilmiy manbalar tahlili asosida “monoshahar” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash va tegishli toifadagi shahar manzilgohlarini ajratish mezonlarini o‘rganish;

yaqin va uzoq xorij davlatlarining tor ixtisoslashgan shahar manzilgohlari, ya’ni monoshaharlarni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini yaxshilash borasidagi tajribasini o‘rganish;

O‘zbekiston shahar va shaharchalarining funksional tasnifini ishlab chiqish va tegishli mazmundagi mavzuli xaritani tuzish;

monoshahar sifatida ajratish mezonlariga mos keladigan O‘zbekistondagi shahar manzilgohlarini aniqlash, ularning shakllanish omillari hamda funksiyalarini hisobga olgan holda iqtisodiy geografik tiplarini ajratish, respublika monoshaharlar to‘rini aks ettiradigan mavzuli xaritani ishlab chiqish;

respublikaning turli hududlaridagi monoshaharlar aholisi o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazish va joylardagi kuzatuvlar asosida ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatni o‘rganish hamda muammoli jihatlarini aniqlash;

O‘zbekiston monoshaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning muqobil yo‘nalishlarini belgilovchi iqtisodiy geografik omillarni ajratish;

respublika monoshaharlarini ularning genetik va funksional tarkibidan kelib chiqqan holda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo‘nalishlariga oid ilmiy-amaliy takliflarni asoslash.

### **Tadqiqotning obyekti** O‘zbekiston monoshaharlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** O‘zbekiston monoshaharlarining tarkibi, genetik va funksional tasnifi, hozirgi bosqichdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik holati, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning muqobil yo‘llari va istiqbollari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada statistik-matematik, anketa so‘rovi, geografik taqqoslash, tipologiya, hududiy tahlil, “ArcGIS” dasturi asosida kartalashtirish usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston shahar va shaharchalarining ularda joylashgan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy obyektlar tarkibi, hududiy ta’sir doirasasi hamda siyosiy-ma’muriy ahamiyatini hisobga olgan holda funksional tipologiyasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston shahar manzilgohlari shahar hosil qiluvchi funksiyalarining tahlili asosida ilk bor respublikadagi monoshaharlar tarkibi aniqlashtirilgan, ularning iqtisodiy geografik tiplari ajratilgan;

shahar hosil qiluvchi bazaviy ishlab chiqarish obyektlari (mineral xomashyo konlari, sanoat korxonalari, temir yo‘l stansiyalari va boshqalar) faoliyati to‘xtagan, biroq demografik salohiyati saqlanib, aholi uchun faqat yashash maskaniga aylangan shahar manzilgohlarini ifodalash uchun ilk bor ilmiy muomalaga “relikt shahar” atamasi kiritilgan;

respublika monoshaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muqobil yo‘llarini belgilab beradigan iqtisodiy geografik omillar (shahar va shaharchalarning iqtisodiy geografik o‘rni, mehnat resurslari va malakali ishchi kuchi, tabiiy rekreatsiya resurslari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan iste’mol talabining hududiy xususiyatlari) asoslangan;

O‘zbekiston monoshaharlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari (kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligi darajasini oshirish va tarmoq tarkibini diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash va boshqalar) belgilangan hamda ularga oid tashkiliy, ma’muriy va iqtisodiy choratadbirlar majmuasi monoshaharlarning tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston shaharlarining funksional tipologiyasi va respublika monoshaharlarini to‘ri aks ettirilgan mavzuli xaritalar tuzilgan;

respublika turli hududlarida joylashgan monoshaharlar (Toshkent viloyatidagi Yangiobod, Nurobod, Krasnogorsk, Sirdaryo viloyatidagi Shirin, Farg‘ona viloyatidagi Quvasoy, Surxondaryo viloyatidagi Sharg‘un, Buxoro viloyatidagi Qorovulbozor, Navoiy viloyatidagi G‘ozg‘on, Xorazm viloyatidagi Pitnak, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Qoratov)da maxsus sotsiologik so‘rvonoma o‘tkazish orqali monoshaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy va geoekologik muammolari aniqlangan;

O‘zbekiston monoshaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muqobil yo‘nalishlarini belgilashga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, hududiy statistika boshqarmalari rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot doirasida qo‘llanilgan nazariy yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, zamonaviy tadqiqot usullari qo‘llanilganligi, O‘zbekistonning 8 ta hududida joylashgan 10 ta monoshaharda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatni o‘rganishga qaratilgan ijtimoiy so‘rvonoma hamda dissertantning joylardagi kuzatuvlari natijalaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijasida olingan xulosa va takliflarning amaliyatda joriy etilganligi, ushbu natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston shahar va shaharchalarining hozirgi rivojlanish holatini aks ettiruvchi funksional tasnifi ishlab chiqilganligi, respublikada ilk marta monoshaharlar tarkibi aniqlanganligi, tor ixtisoslashgan shahar manzilgohlarining iqtisodiy geografik tiplari ajratilganligi, shaharlar aholisining o‘z yashash manzilgohlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatni baholashi, muammolarini ajratishi va ularni yechishga asos bo‘ladigan omillarni ko‘rsatishiga mo‘ljallangan ijtimoiy so‘rovnama shakllari ishlab chiqilganligi, ushbu ijtimoiy so‘rovnomalar metodikasining shaharlarni ijtimoiy geografik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar doirasida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natija va xulosalaridan respublika monoshaharlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, yirik sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, xo‘jaligini diversifikatsiyalash va aholisi bandligini oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, ekologik vaziyatini barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston monoshaharlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari, muammolari va istiqbollarini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

O‘zbekiston shahar va shaharchalarining ularda joylashgan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy obyektlar tarkibi, hududiy ta’sir doirasi hamda siyosiy-ma’muriy ahamiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan funksional tipologiyasi “Kartografiya” ilmiy ishlab chiqarish korxonasi tomonidan 2023-yilda nashr etilgan O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy xaritalarining mazmunini tuzishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024 yil 30 yanvardagi 03/08-797-sun ma’lumotnomasi). Natijada, respublika hududlari iqtisodiy xaritalarining shahar manzilgohlariga oid mazmun-mohiyatini boyitishga imkon bergen;

O‘zbekiston shahar manzilgohlari shahar hosil qiluvchi funksiyalarining tahlili asosida ilk bor aniqlashtirilgan respublikadagi monoshaharlar tarkibi, muallif tomonidan ajratilgan ularning iqtisodiy geografik tiplariga oid xulosalari “Kartografiya” ilmiy ishlab chiqarish korxonasi tomonidan 2023 yilda nashr etilgan O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy xaritalarining mazmunini ishlab chiqishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024 yil 30 yanvardagi 03/08-797-sun ma’lumotnomasi). Natijada, tor ixtisoslashgan shaharlar va shaharchalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini geografik xaritalar yordamida o‘rganish imkoniy yaratilgan;

shahar hosil qiluvchi bazaviy ishlab chiqarish obyektlari (mineral xomashyo konlari, sanoat korxonalari, temir yo‘l stansiyalari va boshqalar) faoliyati to‘xtagan, biroq demografik salohiyati saqlanib, aholi uchun faqat yashash maskaniga aylangan shahar manzilgohlarini ifodalash uchun ilk bor ilmiy muommalaga kiritilgan “relikt

shahar” atamasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4 apreldagi “2022–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 155-sen Qarori ijrosini ta’minalashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 5 fevraldagli PC/01-09/30a-sen ma’lumotnomasi). Natijada, shahar hosil qiluvchi bazasi degradatsiyaga uchragan, lekin aholi soni barqaror saqlangan shahar manzilgohlarining ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini alohida ravishda tahlil qilish va baholashning zaruratini asoslash imkonini bergen;

respublika monoshaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muqobil yo‘llarini belgilab beradigan iqtisodiy geografik omillar (shahar va shaharchalarining iqtisodiy geografik o‘rni, mehnat resurslari va malakali ishchi kuchi, tabiiy rekreatsiya resurslari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan iste’mol talabining hududiy xususiyatlari)ga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 avgustdagli “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur’atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-213-sen Farmoni ijrosini ta’minalashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 5 fevraldagli PC/01-09/30a-sen ma’lumotnomasi). Natijada, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tor ixtisoslashgan shahar manzilgohlarining sanoat va tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlashtirilgan.

belgilangan O‘zbekiston monoshaharlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari (kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligi darajasini oshirish va tarmoq tarkibini diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash va boshqalar) hamda monoshaharlarning tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan tegishli tashkiliy, ma’muriy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4 apreldagi “2022–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 155-sen Qarori ijrosini ta’minalashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 5 fevraldagli PC/01-09/30a-sen ma’lumotnomasi). Natijada, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Qoratov, Jumurtov, Qirqqiz singari tor ixtisoslashgan sanoat shaharchalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy nufuzli jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Monoshaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq etishning ilmiy asoslari va xalqaro tajribasi**” deb nomlangan birinchi bobida monoshahar tushunchasining mohiyati hamda monoshaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini o‘rganish va ularni yechishdagi xalqaro tajriba tadqiq etilgan.

Ilmiy manbalar tahlili asosida **monoshohar** tushunchasini *ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mehnat bozori, shahar byudjeti, kommunal va ijtimoiy infratuzilmasi, demografik tendensiyalari, atrof hududlarga ta’siri shaharga asos soluvchi korxonaga yoki bitta ishlab chiqarish tarmog‘idagi bir qancha korxonalariga yoxud boshqa xo‘jalik tashkilotiga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgan shahar manzilgohi* deb tavsiflash mumkin. Monoshaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari AQSH, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Avstraliya, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston kabi ko‘plab mamlakatlarda o‘rganilgan va mazkur muammolarni hal etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston hududiy urbanistik tarkibida monoshaharlarning o‘rni**” deb nomlangan ikkinchi bobida respublika shahar manzilgohlarining funksional tipologiyasi ishlab chiqilgan, monoshaharlar tarkibi aniqlashtirilgan hamda ularning shakllanish omillari va bosqichlari tahlil qilingan (1-jadval).

Shaharlarni funksional tiplarga ajratishda bosh mezon sifatida uzoq vaqt davomida qo‘llab kelingan aholining bandlik tarkibi emas, balki faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy obyektlar tarkibi, ularning hududiy ta’siri va ma’muriy maqomi hisobga olingan.

To‘plangan ma’lumotlar tahlili asosida, 01.01.2023-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda mavjud 120 ta shahar aholi punktining 14 tasi (11,7 %) hamda 1057 ta shaharchalarning 51 tasi (4,8 %) monoshahar sifatida tasniflangan.

**O‘zbekiston shaharlaring funksional tiplari (2023-y.)**

T.r.	Shaharlarning funksional tiplari	Shaharlar nomlari	Shaharlar soni
1.	Ko‘p funksiyali poytaxt shahar	Toshkent	1
2.	Ko‘p funksiyali hududlararo va viloyat markazlari	Samarqand, Nukus	2
3.	Ko‘p funksiyali viloyat markazlari	Andijon, Namangan, Farg‘ona, Guliston, Jizzax, Navoiy, Buxoro, Qarshi, Termiz, Urganch	10
4.	Ma’muriy va sanoat funksiyali viloyat markazi	Nurafshon	1
5.	Ko‘p funksiyali tumanlararo markazlar	Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Chirchiq, Yangiyer, Kattaqo‘rg‘on, Urgut, Shahrisabz, Denov, To‘rtko‘l, Beruniy, Qo‘ng‘iroq, Chimboy	13
6.	Ko‘p tarmoqli sanoat shaharlari	Angren, Olmaliq, Ohangaron, Bekobod, Yangiyo‘l	5
7.	Ko‘p funksiyali shaharlar – tuman markazlari	Taxiatosh, Xo‘jayli, Bo‘ston, To‘raqo‘rg‘on, Pop, Keles, G‘azalkent, Sirdaryo, G‘uzor, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Jomboy, Kogon	13
8.	Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari	Xonobod, Quvasoy, Tinchlik, Shirin, Sharg‘un, Zarafshon, G‘ozg‘on, Gazli	8
9.	Tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari – tuman markazlari	Asaka, Muborak, Uchquduq, Qorovulbozor, Pitnak	5
10.	Agrosanoat va servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari	Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Xo‘jaobod, Marhamat, Paxtaobod, Poytug‘, Shahrixon, Quva, Rishton, Beshariq, Yaypan, Kosonsoy, Uchqo‘rg‘on, Haqqulobod, Parkent, Piskent, Bo‘ka, Oqqa‘rg‘on, Do‘stobod, Chinoz, G‘allaorol, Do‘stlik, Paxtakor, Koson, Beshkent, Yangi Nishon, Chiroqchi, Yakkabog‘, Qamashi, Kitob, Sherobod, Sho‘rchi, Bulung‘ur, Juma, Ishtixon, Oqtosh, Qiziltepa, G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan, Galaosiyo, Qorako‘l, Olot, Mang‘it	45
11.	Rekreatsiya va turizm shaharlari – tuman markazlari	Xiva, Chortoq	2
12.	Mahalliy servis funksiyali shaharlar – tuman markazlari	Gagarin, Boysun, Payariq, Nurobod, Nurota, Yangirabot, Shumanay, Mo‘ynoq	8
13.	Mahalliy agrosanoat va servis markazlari	Qorasuv, Baxt, Dashtobod, Tallimardon, Chelak, Xalqobod	6
14.	Rekreatsiya va turizm shaharlari	Yangiobod	1

Jadval muallif tomonidan tuzilgan


Respublika monoshaharlari tarkibi xilma-xil bo‘lib, ular shakllanish omillari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari, rekreatsiya va turizm shaharlari, transport shaharchalari, harbiy shaharchalar, ilmiy shaharchalar singari iqtisodiy geografik tiplarga ajratilgan hamda O‘zbekiston monoshaharlari va ularning iqtisodiy geografik tiplari xaritasi yaratilgan (1-rasm).

O‘zbekiston monoshaharlari foydali qazilma konlari ochilishi, gidrotexnik inshootlar, temir yo‘llar, yirik IESlar qurilishi, ilmiy tadqiqot muassasalari tashkil etilishi, harbiy qismlar va boshqa obyektlar qurilishi, Mustaqillik yillarda yirik sanoat korxonalarining barpo etilishi hamda rekreatsiya resurslari negizida tarkib topganligi asoslangan. Respublika monoshaharlari shakllanishi uch bosqichga ajratilgan: 1-bosqich 1960-yilgacha bo‘lgan davr; 2-bosqich 1960–1990-yillar va 3-bosqich 1990-yildan hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davr. Monoshaharlarning vujudga kelish xususiyatlari davrlar bo‘yicha taqqoslangan.

Ilk bor ilmiy muomalaga *relikt (ya’ni, qoldiq) shahar* tushunchasi kiritilib, ushbu atama bilan foydali qazilma konlari, yirik sanoat korxonalari, temir yo‘l stansiyalari singari obyektlar negizida shakllanib, keyinchalik ularning faoliyati to‘xtagini natijasida ishsizlik va u bilan bog‘liq dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolar to‘planib qolgan, lekin aholi soni kamaymasdan (hattoki minimal darajada o‘sib) hozirgi vaqtda aholi uchun faqat yashash joyi vazifasini bajarayotgan shaharlarni nomlash taklif etilgan. Bugungi kunda relikt shaharlar toifasiga Krasnogorsk, Uyg‘ursoy, Janubiy Olamushuk, Qo‘ytosh, Langar (Xatirchi tumani) shaharchalarini kiritish mumkin.

Dissertatsianing “**Respublika monoshaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari**” deb nomlangan uchinchi bobida respublika monoshaharlari aholisi sonining dinamikasi tahlil qilingan, O‘zbekiston monoshaharlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va geoekologik vaziyat hamda uning muammoli jihatlari o‘rganilgan. Bunda Pitnak, Qorovulbozor, G‘ozg‘on, Sharg‘un, Shirin, Yangiobod, Quvasoy shaharlari hamda Qoratov, Krasnogorsk, Nurobod shaharchalarida olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar davomida to‘plangan ma’lumotlar muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Respublikaning deyarli barcha monoshaharlarda Mustaqillikning dastlabki yillarda yevropalik millat vakillarining ko‘pchiligi o‘z tarixiy o‘lkalariga ko‘chib ketishi kuzatilgan bo‘lsada, tor ixtisoslashgan shaharlarda ham oxirgi o‘n yilliklar davomida deyarli hamma vaqt aholi sonining o‘sishi kuzatilgan bo‘lib, mazkur holatni monoshaharlarga respublikaning turli hududlaridan aholi ko‘chib kelganligi bilan izohlash mumkin. Respublikaning aksariyat monoshaharlari ishlab chiqarish salohiyati bilan emas, balki shahar infratuzilmasi mavjudligi bois, aholini faqat yashash uchun nisbatan qulay joy sifatida o‘ziga jalb qiladi. Ayniqsa, relikt shaharlarda ishsizlik darajasi juda yuqori bo‘lib, mazkur shaharlar aholisi soni dinamikasida muayyan o‘sish kuzatilayotgan bo‘lsa-da, ushbu vaziyat bu kabi monoshaharlarning barqaror rivojlanayotganligini anglatmaydi hamda tor ixtisoslashgan shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini har tomonlama tadqiq etish dolzarb vazifalardan bo‘lib qolaveradi.



1-rasm. O'zbekiston monoshabharlari va ularning iqtisodiy geografik tiplari xaritasi


Sotsiologik so‘rovnomalardan ma’lum bo‘lishicha, respublika monoshaharlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shahar hosil qiluvchi korxona faoliyatiga yuqori darajada bog‘liq, aksariyat tor ixtisoslashgan shaharlarda haqiqiy ishsizlik darajasi yuqori va u bilan bog‘liq muammolar ancha dolzARB. Ayniqsa, relikt shaharlarda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat qoniqarsiz bo‘lib, respublika monoshaharlarini rivojlantirishga doir me’yoriy-huquqiy hujatlarda, eng avvalo, shaharsoz korxonasi faoliyati tugatilgan aholi punktlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari belgilanishi kerak (2-rasm).

Respublikaning aksariyat monoshaharlari tog‘-kon sanoati negizida vujudga kelganligi bois, mazkur aholi punktlarida o‘ziga xos geoekologik vaziyat shakllangan bo‘lib, ishlab chiqarish xususiyatiga bog‘liq holda xomashyoni qazib olish va uni qayta ishlash jarayonida turli ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Chunonchi, rudali foydali qazilmalarga ishlov berishga ixtisoslashgan monoshaharlarda tog‘ jinslari tarkibidagi keraksiz moddalarning chiqarib tashlanishi natijasida katta hajmdagi qattiq chiqindilar to‘planib borayotgan bo‘lsa, neft va gazni qayta ishlash hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan monoshaharlarda atmosfera havosining zararli gazlar va chang bilan ortiqcha ifloslanishi kuzatilmoqda.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston monoshaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muqobil yo‘llari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida respublika monoshaharlarini muqobil rivojlantirishning iqtisodiy geografik omillari tadqiq etilib, monoshaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini yaratish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Sotsiologik so‘rovnomalalar tahvilidan xulosa qilish mumkinki, deyarli barcha tor ixtisoslashgan shaharlarda nisbatan arzon ishchi kuchining ko‘pligi, ishlab chiqarish va kommunal infratuzilma shakllanganligi, tovar va xizmatlarga potensial talab mavjudligi singari omillar hisobiga moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning qo‘srimcha tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Qayd etish joizki, monoshaharlarni muqobil rivojlantirish uchun tadbirkorlarga kredit va soliqlardan imtiyozlar berish, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Monoshaharlarni rekreatsion resurslar asosida rivojlantirishga Yangiobod shahri tajribasi yorqin misol bo‘ladi. Konchilik sanoati negizida tarkib topgan va keyinchalik shaharsoz korxona faoliyati butunlay tugatilgan bo‘lsada, Yangiobod ba’zi monoshaharlar singari relikt shaharga aylanib qolmay, o‘zining xo‘jalik ixtisosligini o‘zgartirib, bugungi kunda rekreatsiya va turizm shahri sifatida tanilmoqda. Bunda uning tog‘ yonbag‘rida joylashganligi, xushmanzara tabiat va ayniqsa, yoz oylarida havosi salqinligi bilan dam oluvchilarni o‘ziga jalb etayotganligi muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, turli tashkilotlar tomonidan mazkur hudud tanlanib, bu yerda sport bazalari tashkil etilganligi hamda turli sport tadbirlari o‘tkazib kelinayotganligi ham Yangiobod shahrining sayyohlik ahamiyatini oshirib, mavsumiy rekreatsiya markaziga aylanishida muhim rol o‘ynamoqda.



**2-rasm. Respondentlarning o‘zlari istiqomat qilayotgan monoshahardagi eng asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bo‘yicha fikrlari (%)**

*Izoh: Respondentlar uchtagacha javobni belgilashlari mumkin bo’lgan.*

Yangiobod shahrida turizmni rivojlantirish tajribasidan tog‘oldi hududlarida yoki yirik suv havzalari yaqinida joylashgan, tabiiy rekreatsion resurslarga boy bo‘lgan Langar (Xatirchi tumani), Sharg‘un, Oltinkon, Chorkesar, Qo‘ytosh, Uchquloch, Suv hovuzi singari monoshaharlarda foydalanish imkoniyatlarini baholash mumkin. Qayd etish joizki, respublika aholisi tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlarining yuqoriligi hamda dam olish muassasalariga bo‘lgan talabning yil sayin ortib borayotganligi tor ixtisoslashgan shaharlarning rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va shu orqali aholi bandligini ta’minlash, ishlab chiqarish, transport, kommunal va ijtimoiy infratuzilma sifatini oshirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilash respublika tor ixtisoslashgan shaharlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilanishi lozim.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, respublika monoshaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, birinchi navbatda, depressiv holatga tushib qolgan tor ixtisoslashgan shaharlarda mavjud muammolarni bartaraf etishda, shu bilan birga, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali barqaror rivojlanayotgan monoshaharlar ham duch kelishi ehtimoli yuqori bo‘lgan tor ixtisoslashganlik xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur strategiyani yaratish uchun, avvalambor, monoshaharlik belgilari mavjud shaharlarda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borish lozim. Bundan tashqari, monoshaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining monitoringini muntazam amalga oshirish hamda ushbu manzilgohlar bo‘yicha alohida, keng ko‘lamli statistik materiallar to‘plab borilishi zarur.

## XULOSA

Olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O‘zbekistonda tor ixtisoslashgan shaharlar shakllanishi va rivojlanishi yirik sanoat korxonalari barpo etilishi bilan birga yana bir qancha omillarga bog‘liq bo‘lganligi bois, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mehnat bozori, shahar byudjeti, kommunal va ijtimoiy infratuzilmasi, demografik tendensiyalari, atrof hududlarga ta’siri shaharga asos soluvchi korxonaga yoki bitta ishlab chiqarish tarmog‘idagi bir qancha korxonalarga yoxud boshqa xo‘jalik tashkilotiga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgan shahar aholi punktlari monoshaharlar toifasiga kiritildi.

2. O‘zbekiston shahar va shaharchalarining funksional tipologiyasini ishlab chiqish shahar aholi punktlarining hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va tahlil qilish, rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga mamlakat monoshaharlari ro‘yxatini shakllantirishda ham muhim o‘rniga ega. Hozirgi vaqtida faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy obyektlar tarkibi, ularning hududiy ta’siri hamda aholi punktlarining ma’muriy maqomini hisobga olgan holda respublikada mavjud shahar aholi punktlari 14 ta, shaharchalar esa 15 ta funksional tiplarga ajratildi.

3. O‘zbekistonda 14 ta shahar va 51 ta shaharcha maqomidagi aholi punktlari tor ixtisoslashganlik xususiyatiga ega bo‘lib, respublika monoshaharlarining

ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o‘rganish va ularning rivojlanish istiqbollarini belgilashda mazkur shaharlarning tarkibi va iqtisodiy geografik tiplarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, respublika monoshaharlarini tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari, tor ixtisoslashgan sanoat shaharlari – tuman markazlari, rekreatsiya va turizm shaharlari, tor ixtisoslashgan sanoat shaharchalari, tor ixtisoslashgan sanoat shaharchalari – tuman markazlari, transport shaharchalari, transport shaharchalari – tuman markazlari, rekreatsiya va turizm shaharchalari, harbiy shaharchalar, gidrotexnik shaharchalar, ilmiy shaharchalar, relikt shaharchalar singari iqtisodiy geografik tiplarga ajratildi.

4. O‘zbekiston monoshaharlari foydali qazilma konlarining ishga tushirilishi, temir yo‘llar qurilishi, yirik IESlar barpo qilinishi, gidrotexnik inshootlar bунyod etilishi, ilmiy tadqiqot muassasalari tashkil etilishi, harbiy qismlar va boshqa obyektlar qurilishi, mustaqillik yillarida yirik sanoat korxonalarining ishga tushirilishi hamda rekreatsiya resurslari mavjudligi kabi omillar natijasida shakllangan. Respublika tor ixtisoslashgan shaharlarning tarkib topishi 3 bosqichga ajratiladi: 1960-yilgacha bo‘lgan davr, 1960–1990-yillar hamda 1990-yildan hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davr.

5. Shahar hosil qiluvchi korxonasi faoliyati tugatilgan Langar (Xatirchi tumani), Krasnogorsk, Qo‘ytosh singari relikt shaharchalar hamda hozirgi vaqtда rekreatsiya va turizmga ixtisoslashib borayotgan Yangiobod shahri aholisi soni Mustaqillik yillarida biroz kamaygani yoki past sur’atlarda o‘sGANI holda, mazkur davrda aksariyat tor ixtisoslashgan shaharlар aholisi sonining barqaror o’sishi kuzatilgan. Ushbu holat monoshaharlarga respublikaning turli hududlaridan, asosan, qishloq joylardan aholining ko‘chib kelishi bilan izohlanadi. Binobarin, Krasnogorsk, Janubiy Olamushuk, Uyg‘ursoy, Langar (Xatirchi tumani), Qo‘ytosh kabi monoshaharlar hozirgi vaqtда aholi uchun faqatgina yashash joyi sifatida xizmat qilib, mazkur aholi punktlarida saqlanib qolayotgan yuqori darajadagi ishsizlik va u bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimini topish mintaqaviy siyosatning dolzarb vazifalaridandir.

6. O‘zbekiston monoshaharlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat mazkur aholi punktlari xo‘jaligi va aholisi bandligi bitta yirik korxona yoki biror xo‘jalik tarmog‘iga yuqori darajada bog‘liqligi, ishlab chiqarish va aholining kasbiy tarkibi diversifikasiyalanmaganligi, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi bandligining asosiy omillaridan hisoblangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi, dolzarb ekologik muammolar mavjudligi, aksariyat shaharlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning eskirganligi, relikt shaharlarda haqiqiy ishsizlik darajasining yuqoriligi kabi jihatlar bilan tavsiflanadi.

7. Respublikaning aksariyat tor ixtisoslashgan shaharlari foydali qazilmalarni qazib olish va ularni qayta ishlovchi sanoat korxonalari barpo etilishi negizida shakllanganligi uchun hozirgi vaqtда mazkur aholi punktlarida ishlab chiqarish

xususiyatlariga muvofiq bir qator ekologik muammolar yuzaga kelgan. Chunonchi, ruda qazib olish va unga dastlabki ishlov berishga ixtisoslashgan shaharlarda (Zarafshon, Muruntov, Uchquduq, Zarkent (Qo'shrabot tumani), Oltinkon va b.) ko'p miqdorda qattiq chiqindilarning to'planib borishi, neft va gazni qayta ishlashga (Qorovulbozor, Muborak, Tinchlik va b.) hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan shaharlarda (Quvasoy, G'ozg'on, Qoratov, Jumurtov va b.) atmosferaning turli zararli moddalar hamda chang bilan ortiqcha ifloslanishi kuzatilmoxda. Shu bois, monoshaharlarda atrof-muhit monitoringini muntazam yuritish va tabiatni sog'lomlashtirishga alohida e'tibor berish dolzarb vazifalardan sanaladi.

8. Jahonning qator davlatlarida yo'lga qo'yilgan monoshaharlar monitoringini yuritish tajribasini respublikada ham joriy qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bunda monoshaharlarning rivojlanish muammolarini o'rganish maqsadida ularning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatini har tomonlama, chuqur tahlil qilish imkonini beradigan statistik ma'lumotlarni to'plashga alohida e'tibor berilishi lozim. Aynan monoshaharlar monitoringini muntazam yuritish orqali mazkur aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, muammolarini tadqiq etish, tor ixtisoslashganlik xavfini kamaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

9. O'zbekistonning aksariyat monoshaharlarini muqobil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu tor ixtisoslashgan shaharlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi shakllanganligi, kommunal xizmatlar mavjudligi, ishchi kuchining ko'pligi va nisbatan arzonligi, tog'li hududlarda joylashgan monoshaharlar tabiiy rekreatsion resurslarga boyligi singari omillar bilan izohlanadi. Monoshaharlarni barqaror rivojlantirishda ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish orqali iqtisodiyotning muayyan sohaga qaramligini imkon qadar kamaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, buni amalga oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

10. Xorijiy davlatlar tajribasida ko'p uchraydigan monoshaharlarni rekreatsion resurslar asosida muqobil rivojlantirish imkoniyatlari O'zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur holat respublikaning Yangiobod, Krasnogorsk, Xonobod, Qo'ytosh, Langar (Xatirchi tumani), Sharg'un singari ko'pchilik monoshaharlari tabiiy rekreatsiya resurslariga boy bo'lган tog' va tog' oldi hududlarida vujudga kelganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanish uchun monoshaharlarda turizm faoliyatini yo'lga qo'ymoqchi bo'lган tadbirkorlarni faol qo'llab-quvvatlash, ular uchun imtiyozli kreditlar ajratish, soliqlar va boshqa to'lovlardan yengilliklar berish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

11. O‘zbekiston monoshaharlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanib, unda aholi bandligi darajasini oshirish va tarmoq tarkibini diversifikatsiyalashning asosiy omili sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport infratuzilmasini, kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma sifatini oshirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilash monoshaharlarni barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida qayd etilishi kerak.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD/31.10.2022.Gr.20.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА  
ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

---

**ИСМАТОВ ДЖАХОНГИР АТАВУЛЛАЕВИЧ**

**ФАКТОРЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОЦИАЛЬНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ МОНОГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА**

**11.00.02 – Экономическая и социальная география**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Нукус – 2024**

**Тема докторской диссертации по географическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2023.3.PhD/Gr270.**

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Раджабов Фуркат Туракулович,**  
доктор философии (PhD) по географии, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Жумаханов Шавкатжон Заиржанович**  
доктор географических наук, доцент

**Ембергенов Наурызбай Жанабаевич**  
кандидат географических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Андижанский государственный университет**

Зашита диссертации состоится «08» июня 2024 года в 14:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. (Адрес: 230112, г. Нукус, улица Ч.Абдирова, дом 1. Тел./факс: (99861) 223-60-78, факс: (99861) 223-60-19; e-mail: [ik.geografiya@gmail.com](mailto:ik.geografiya@gmail.com)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирована за № \_\_\_\_) Адрес: 230112, г.Нукус, улица Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (99861) 223-60-78; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «27» мая 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от «27» мая 2024 года).

**И.Р. Турдимамбетов**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.г.н., профессор

**Г.А. Ходжаева**

Учёный секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
к.г.н., доцент

**П.Р. Реймов**

Председатель Научного семинара при Научном  
совете по присуждению учёных степеней,  
д.г.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире к числу актуальных задач относятся расширение круга функций узкоспециализированных городов (моногородов), разработка альтернативных путей социально-экономического развития, улучшение социально-демографической и экологической ситуации в них. Поэтому 11 цель Программы ООН по устойчивому развитию до 2030 года направлена на решение задач, связанных с «обеспечением открытости, безопасности и экологической устойчивости городов и населенных пунктов»<sup>3</sup>. Достижение соответствующей цели требует разработки и реализации комплекса мер, направленных на диверсификацию структуры экономики моногородов, увеличение занятости населения, развитие малого предпринимательства, модернизацию инфраструктуры.

В мире особое внимание уделяется социально-географическим исследованиям, направленным на выявление факторов формирования и развития узкоспециализированных городских поселений, характеристику городов соответствующей категории, изучение проблем эффективного использования их производственного и демографического потенциала, разработку решения этих проблем. В данных исследованиях приоритетное внимание уделяется обоснованию критериев и принципов выделения моногородов как особой категории городов, генетической и функциональной типологии узкоспециализированных городских поселений, оценке, прогнозу и выявлению проблемын аспектов их социально-экономического, демографического и экологического положения, разработке путей диверсификации хозяйственных и социально-культурных функций соответствующей категории городов.

В нашей республике проводится ряд реформ по комплексному социально-экономическому развитию городских поселений, повышению их инвестиционной привлекательности, в результате которых достигнуты определенные положительные результаты. В частности, в пункте 60 Стратегии «Узбекистан – 2030», утверждённой Указом Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 11 сентября 2023 года определены такие актуальные задачи, как «Доведение уровня урбанизации до 60 процентов, доведение количества массивов «Янги Узбекистон» до 100, возведение дополнительно жилья для 200 тысяч семей, возвведение на густонаселённых территориях многоэтажных домов на основе принципа «развитие в рост»<sup>4</sup>. В этой связи, в частности, большое значение приобретают общественно-географические исследования, направленные на комплексное изучение факторов, проблем и перспектив социально-экономического развития моногородов нашей страны.

---

<sup>3</sup> <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>

<sup>4</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030» от 11 сентября 2023 года

